

Akusher-ginekologlarning xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Andijon davlat tibbiyot instituti 1-akusherlik-ginekologiya kafedrasini mudiri tibbiyot fanlari doktori, dotsent D.B.Asranqulova va kafedra xodimlari tashabbusi bilan ukrainalik xalqaro olim, Xarkov tibbiyot akademiyasi akusherlik-ginekologiya va perinatalogiya kafedrasini dotsenti, Oilani rejalashtirish va reproduktiv salomatlikni saqlash masalalari bo'yicha JSST murabbiyi Struk Tatyana Anatolevna ishtirokida xalqaro ilmiy-anjuman o'tkazildi.

Anjumanda Andijon davlat tibbiyot instituti 1-akusherlik ginekologiya kafedrasini, Vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetining akusherlik va ginekologiya kafedrasini professor-o'qituvchilari, magistratura va klinik ordinatura talabalari hamda Andijon, Farg'ona, Namangan viloyat perinatal markazlarining akusher-ginekologlari qatnashdilar.



Ilmiy-anjuman anjumanni 1-akusherlik-ginekologiya kafedrasini mudiri tibbiyot fanlari doktori, dotsent D.B.Asranqulova ochib berdi. Professor Struk Tatyana Anatolevna "Ayollarning turli yoshdagi davrlarida gormonoterapiyani differensiyalashgan yondashuvi" mavzusida ilmiy ma'ruza o'qidi. 1-akusherlik-ginekologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent D.B.Asranqulova va boshqalar anjuman yo'nalishi bo'yicha o'z ma'ruzalari o'qib eshittirdilar.

Anjuman yakunida professor T.A.Struk anjuman ishtirokchilarini qiziqtirgan savollar misollar bilan javob berdi.

Anjuman so'nggida barcha ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.